

TANQIDIY FIKRLASH – KELAJAK KASBLARINING MUKAMMAL POYDEVORI

Nazarov Toshpo'lat

Jizzax Davlat Pedagogika Instituti, Maktab menejmenti kafedrası o'qituvchisi

Bobobekov Jamol

Jizzax Davlat Pedagogika Instituti, Maktab menejmenti, 1-kurs talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada inson tafakkurini shakllantiruvchi tanqidiy fikrlash dolzarbligi, uning mohiyati, uning turlari va bosqichlari, texnologiyalari haqida fikr yuritildi. Maqolada tanqidiy fikrlash sohasining asoslari va mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Prezident maktablari, tanqidiy fikrlash, tanqidiy fikrlash uslubi, axborot, ichki kechinmlar va tashqi olam o'rtasidagi muvozanat.

Аннотация

В статье обсуждается актуальность критического мышления, его сущность, виды и этапы, технологии, формирующие мышление человека. В статье описаны основы и механизмы критического мышления.

Ключевые слова: Президентские школы, критическое мышление, методы критического мышления, информации, переживания между внутренним и внешним миром.

Annotation

This article discusses the relevance of critical thinking, its essence, types and stages, technologies that shape human thinking. The article describes the basics and mechanisms of critical thinking.

Key words: Presidential schools, critical thinking, critical thinking method, information, the balance between inner experiences and the outer world.

So'nggi yillarda ta'lim tizimining umumta'lim bosqichida tanqidiy fikrlashni o'rgatish, o'qitish ishlari qizg'in tus oldi. Ayniqsa, muxtaram Yurtboshimizning "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4199-sonli qarori natijasida yurtimizda tashkil etilayotgan Prezident

maktablarida ta'limni davom ettirish niyatida bo'lgan o'quvchi-yoshlarni imtihonga tayyorlashda aynan tanqidiy fikrlashga doir bilimlarga ehtiyoj keskin oshdi.

Yurtboshimiz mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida:

“...Bugun mamlakatimizning barqaror rivojlanish yo'lida izchil ilgari borishini tahlil qilar ekanmiz, o'tgan yili prinsipial muhim islohotlarni amalga oshirish bo'yicha qat'iy qadamlar qo'yildi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Bu islohotlarning asosiy maqsadi – aholi uchun munosib hayot darajasi va sifatini ta'minlashdir. Jadal va barqaror rivojlanishga qaratilgan bu siyosat bundan keyin ham so'zsiz davom ettiriladi. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbari – bu Bosh vazir yoki uning o'rinbosarlari bo'ladimi, hukumat a'zosi yoki hududlar hokimi bo'ladimi, ular faoliyatining kundalik qoidasi bo'lib qolishi kerak. Endi har birimiz, eng avvalo, davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining vazifasi – o'zimiz mas'ul bo'lgan soha va tarmoqda ishlarning ahvolini tanqidiy baholash asosida zimmamizga yuklatilgan vazifalarni mas'uliyat bilan bajarishni ta'minlashdan iborat. Shunday davr keldi”, - deya ta'kidlab o'tganlari bejiz emas.

Tanqidiy fikrlash insonning dunyoqarashida keskin burilish yasaydi. Tabiat va jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarning asl mohiyati namoyon bo'la boshlaydi. Tanqidiy fikrlash muvaffaqiyat qozonishga, baxtli yashashga, mo'may daromad topishga, hurmat qozonishga xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlash - bu axborotni tahlil qiluvchi, olingan ma'lumotlarni umumlashtiruvchi va o'quv jarayonini o'zida aks ettiruvchi ochiq fikrlashdir. Tanqidiy fikrlash orqali atrofda bo'layotgan har qanday jarayonning sodir bo'lish sababi, davomiyligi hamda oqibati (natijasi) to'g'risida asosli xulosalar yaratish mumkin. Tanqidiy fikrlash ko'nikmasiga ega bo'lish, albatta, juda katta mehnat talab etadi. Buning uchun, avvalo, chuqur bilimga ega bo'lish, egallangan bilimlar

ustida mustaqil ravishda analiz-sintez jarayonlarini amalga oshirish, har bir tushunchaga mantiqan yondoshgan holda hukm va xulosalar chiqarish lozim.

Hozirgi kunda zamonaviy axborot manbalarining jadal rivojlanayotganligi va ma'lumotlarning juda tezlik bilan ommalashish ehtimolining yuqorigini inobatga oladigan bo'lsak, bizga yetib kelayotgan ma'lumotlarning ishonchli hamda asosli ekanligi birlamchi muammoga aylanmoqda. Ma'lumotlarning axborot darajasida aniq ekanligi biz uchun juda muhim.

Muammoning ijobiy yechim topishi nafaqat yangi g'oyalarga, balki ularning qanchalar foydali ekanligiga ham bo'g'liq. Bu ko'nikma orqali g'oya-fikrlarni baholaymiz, eng yaxshilarini saralaymiz va hayotimizni o'zgartirish uchun foydalanamiz. Tanqidiy fikrlaydigan odam go'ya va fikrlarni yaxshi tushunadi. Natijada u dunyoni boshqalardan ko'ra yaxshiroq va tezroq anglaydi. Masalan, siz biror ob'yekt xususida fikr bildirayotgan do'stlaringizning fikriga qo'shilmagan vaziyatingizda siz ularning shubhalariga shubha qila boshlaysiz va bu shubhangizning aniq ekanligini isbotlashga urinasiz, izlanasiz va muvaffaqiyat qozonasiz. Bu tanqidiy fikrlashning bir ko'rinishi.

Tanqidiy fikrlash – bu muammoni hal qilish uchun ma'lumotlardan aniq va oqilona foydalana olish, qo'shimcha ma'lumotlar topish ko'nikmasidir.

Professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-5812-sonli farmoni asosida olib borilayotgan ishlarning asosiy mazmuni kelajak kadrlarini yaratish va bunda ularning professional faoliyat olib borish ko'nikmasini shakllantirishning shart-sharoitlarini doimiy ravishda rivojlantirib borishdir.

Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish borasida olib borilayotgan ishlar davomida o'quvchilar tomonidan kasb tanlashda uchrayotgan qiyinchiliklar:

“Men bu kasbni tanlasam,?”

- bu mutaxassislik bo'yicha ish topa olamanmi?
- uni uddalay olamanmi?
- yetarli daromad topa olamanmi?
- bu sohada yutuqlarga erisha olamanmi?

va boshqa shu kabi savollarga javob topishlarida ularda vaziyatni to'g'ri tahlil qilishlariga ehtiyoj seziladi.

Tahlil bu – murakkab masalani yaxshiroq tushunish uchun uni mayda qismlarga ajratib chiqishdir.

Yuqorida keltirilgan o'quvchilarga muammo tug'dirayotgan savollar paydo bo'lganida o'quvchilar ongida, tafakkurida tahlil jarayonlari amalga oshadi va xuddi shu o'rinda ularda tanqidiy fikr yuritishga, tanqidiy tahlilga ehtiyoj paydo bo'ladi. Tanqidiy fikrlash jarayonida esa mantiqiy yondoshuv faollashadi, savollar aniq ketma-ketlikda qo'yiladi, dalillar taqqoslanadi. Natijada, vaziyatdan chiqish, muammoga nostandart yechim topish mumkin bo'ladi. Aniq va tizimli fikrlash bizdagi g'oyalarni ifodalash uslubini yaxshilaydi. Natijada odamlar bizlarni yaxshiroq tushuna boshlaydilar.

Tanqidiy fikrlash ko'nikmasiga ega odam:

- dalillardan oqilona va xolis foydalanadi;
- fikrlarini aniq va izchil ifodalaydi;
- mantiqsiz xulosalarni yaroqsizlaridan farqlay oladi;
- yetarli dalil bo'lmagan taqdirda, qaror qabul qilishga shoshilmaydi.

Masalan korxonaning biror xodimi berilgan topshiriqni vaqtida bajarmadi. Buning uchun rahbar uni jazolashi kerak. Lekin tanqidiy fikrlovchi rahbar qaror qabul qilishga shoshilmaydi. Avval qarorning oqibatlarini tahlil qiladi va qay darajada to'g'ri ish qilayotganligini baholay oladi.

Tanqidiy fikrlash ko'nikmasiga ega insonda mustaqil o'rganish moyilligi baland bo'ladi. Ya'ni bunda biz bilimimizni yanada boyitib boramiz, qo'shimcha ma'lumotlarga ehtiyoj sezamiz va ularni izlash orqali harakatga kelamiz.

O'quvchilarning kasb tanlashlarida yuzaga keladigan savollarni to'g'ri tahlil qilishlari uchun ulardagi tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tanqidiy fikrlash tufayli inson o'zining ichki kechinmlari va tashqi olam o'rtasidagi muvozanatni nazorat qila olishi va boshqarishi mumkin. Tanqidiy fikrlash asosida o'quvchilar o'zlarining qiziqish va qobiliyatlarini to'g'ri baholay oladi, o'zlariga to'g'ri baho bera oladilar. Bu esa kasb tanlash jarayonidagi muhim omil hisoblanadi. O'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan kasbni tanlashlari bilan birgalikda tanlagan kasblari uchun zarur bo'lgan bilim manbalarini ham aniqlay oladilar, anglay oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M. Mirziyoyev «Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak». Toshkent 2017 y. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza.
2. Sh.M. Mirziyoyev: Oliy ta'lim sohasini yanada rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kengaytirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqi – 2018/10/25.
3. SOROS xalqaro ochiq jamiyatining “Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari” fanlararo dasturi. T., 2004.
4. В. П. Беспалко. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. М., «Педагогика», 1995.
5. <https://lex.uz/ru/docs/-4500926>
6. Ablyakimova, R. (2020). VIEW AND THEORIES ON FACTORS INFLUENCING MANAGEMENT DECISION-MAKING. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 11(1). извлечено от [https://science.i-
edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/1052](https://science.i-
edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/1052)

7. Usmanov, A., & Абсаломов Т.Т., А. . (2020). Қайта тикланувчи энергия манбалари асосида инновацион ишлаб чиқаришни ташкил этиш 208-212-bet. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(68). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3592
8. Usmanov, A. (2020). ЎЗБЕКИСТОН БЕТАКРОР ТУРИСТИК МАМЛАКАТ: ТАРИХИЙ ДАЛИЛЛАР, ИМКОНИЯТ ВА ИСТИҚБОЛ 27-32 bet. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(13), 1-143. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3415